

JALOLIDDIN MANGUBERDI BUYUK SARKARDA VA VATAN QAHRAMONI

Akmaljonov Akbarjon Akmaljon o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san'at fakulteti Tarix yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola o'z yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun mo'g'ul istilochilariga qarshi kurashgan so'nggi Xorazm shohi bo'lmish buyuk sarkarda jamiyat va vatan qahramoni Jaloliddin Mahguberdi olib borgan say harakatlar. haqida keng fikr-mulohazalar yuritib, barchamizni ona yurtimizning beg'ubor osmonini va osuda hayotini qadrlashga, o'sib kelayotgan, ertaga bizning o'rnimizni egallaydigan, dunyoda hech kimdan kam bo'limgan farzandlarimizning kelajagini, baxt-saodatini himoyalashga, yorug' istiqbolga intilib yashashga chorlovchi harakatlari haqida batafsil malumotlar beradi.*

Kalit so'zlar: *Jaloliddin Mahguberdi, O'zbekiston, Mustaqillik, Xorazm, tarixiy asarlar, jamiyat, vatan, xalq, millat.*

ДЖАЛОЛИДДИН МАНГУБЕРДИ ВЕЛИКИЙ ПОЛКОНОЧНИК И ГЕРОЙ РОДИНЫ

Аннотация: *Три статьи начинались с рассказа о Джалалуддине Махгуберди, последнем царе Хорезма, сражавшемся с монгольскими захватчиками за свободу и независимость своей страны. Кто займет наше место в растущем сказочном мире агини, стремящийся защитить свое счастье и светлое будущее. информация о заболевании предоставляется о приглашающем.*

Ключевые слова: *Джалалуддин Махгуберди, Узбекистан, Независимость, Хорезм, исторические труды, общество, Родина, народ, нация.*

JALOLIDDIN MANGUBERDI GREAT COMMANDER AND HERO OF THE MOTHERLAND

Annotation: *Three articles began with the story of Jaloluddin Mahguberdi, the last king of Khorezm who fought against the Mongol invaders for the freedom and independence of his country. Who will be the one who will take our place in the growing, fairy-tale, wider world agini, seeking to protect his*

happiness and a bright future. information about the disease is given about the inviter.

Key words: *Jalaluddin Manguberdi, Uzbekistan, Independence, Khorezm, historical works, society, homeland, people, nation.*

Sulton Jaloliddin siymosi nafaqat Xorazm, balki butun O‘zbekistonning faxr-u g‘ururidir. U bizningozodligimizga, istiqlolimizga tajovuz qilmoqchi bo‘lgan har qanday yovuz kuchga qarshi tik turib kurashishga, mardona zarba berishga qodirligimizning tasdig‘i va timsolidir!

Islom Karimov

Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan nutqidan. 1999-yil 5-noyabr

KIRISH

El-yurt va davlat uchun, uning taqdiri va kelajagi uchun qayg‘uradigan, odamlarning ezgu niyatlarini o‘ziga oliv maqsad qilib qo‘yan, elim deb, yurtim deb yonib yashaydigan, har qanday vaziyatda ham xalqni birlashtirib, turli balo-qazolardan asrash uchun safarbar eta oladigan shaxslargina tarixda o‘chmas nom qoldiradi. Bu – haqiqat. Jaloliddin Manguberdi hamda ana shunday mardlarning yorqin timsoli va ibratlari na-moyandasini desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Sulton Jaloliddinning bizga qoldirgan yana bir da‘vati shuki, u barchamizni ona yurtimizning beg‘ubor osmonini va osuda hayotini qadrlashga, o‘sib kelayotgan, ertaga bizning o‘rnimizni egallaydigan, dunyoda hech kimdan kam bo‘lmagan farzandlarimizning kelajagini, baxt-saodatini himoyalashga, yorug‘ istiqbolga intilib yashashga chorlaydi.

Jaloliddin Manguberdi milliy qahramonlardan biridir. 1999-yilda Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi keng nishonlandi. O‘zbekistonda unga bir qancha yodgorliklar o‘rnatalgan, Xorazm viloyatida Jaloliddin Manguberdi yodgorlik majmuasi barpo etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 29-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasining Xorazm viloyatida yangi haykalni ochdi. Jaloliddin Manguberdi (to‘liq ismi – Jaloliddin Abulmuzaffar Manguberdi ibn Muhammad) (1198-1231)-Xorazmshohlar davlatining so‘nggi hukmdori (1220-yildan), Muhammad Xorazmshohning to‘ng‘ich o‘g‘li, kelib chiqishi turkmanlarning Begdili urug‘iga borib taqaladi. Jaloliddin 33 yil umr ko‘rgan bo‘lib, shundan 11 yili turli janglar ichida o‘tgan. To‘liq ismi Jaloliddin ibn Alovuddin Muhammad. Onasi –Oychechak bo‘lgan. Jaloliddining burnida xoli

(mank) bo‘lgani uchun ham Mankburni nomi bilan atalgan. Keyinchalik bu nom talaffuzda o‘zgarib „Manguberdi“ nomi bilan mashhur bo‘lib ketgan.

MATERIALLAR VA USULLAR

Anushteginiyalar sulolasiga boshqargan Xorazmshohlar davlati (1097–1231)ning ko‘p yillik tarixi o‘sha davr musulmon tarixchilari tomonidan yozilgan qator asarlarda o‘z aksini topgan. Ular asosida ushbu sulolaning so‘nggi vakili, buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdi hukmronligi, uning mo‘g‘ul istilochilariga qarshi qahramonona kurashi hamda G‘arbiy Osiyo sarhadlaridagi faoliyatini kuzatish mumkin. Bu manbalar orasida Jaloliddin Manguberdining shaxsiy kotibi (kotib al-insho), tarixchi Shihobiddin ibn Ahmad an-Nasaviy qalamiga mansub “Siyrat as-sulton Jalol ad-Din Mengburni” (“Sulton Jaloliddin Manguberdining tarjimayi holi”) nomli asar alohida o‘rin tutadi. Nasso (Niso) viloyatidagi qal’alardan birining sohibi bo‘lgan Nasaviy 1224-yilda xizmat yuzasidan Iroqqa borib qoladi va o‘sha yerda Sulton Jaloliddinning xizmatiga kiradi. Shundan e’tiboran u Jaloliddinning ishonchli mulozimlaridan biriga aylanib, to 1231-yilgacha, ya’ni Jaloliddinning vafotiga qadar u bilan birga bo‘ladi.

Nasaviy o‘z qahramonini yaqindan bilgan, asarida bayon topgan voqeahodisalarining aksariyatida bevosita ishtirok etgan yoki shohid kishilarning xabarlariga tayangan, eng muhimi, xolisona va haqqoniy fikr bildirgan, bular asarning ilmiy qimmati hamda ishonchlilik darajasini oshiradi. Muallif 79 o‘z asarini bitishga Jaloliddin vafotidan qariyb 10 yil o‘tgandan so‘ng 1241-yilda kirishgan.

Jaloliddin Manguberdi haqida Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy o‘zining asarida shunday yozadi: “Jaloliddin qorachadan kelgan, o‘rta bo‘yli, turkiy qiyofalik va turkiyda gapiradigan odam edi, shu bilan birga forsiyda ham so‘zlasha olardi. U mard, jasur bo‘lib, sherlar orasida eng zo‘r sher edi, qo‘rqmas chavandoz, lashkarlar orasida eng botir edi. U yuvosh, muloyim odam edi, jahldor emasdi, haqoratomuz so‘zlarni aytmasdi. U nihoyatda jiddiy edi, kulmasdi, faqat jilmayib qo‘yardi, kam gapirardi. U haqgo‘ylikni,adolatni ulug‘lardi”. Mashhur shoir va adib Maqsud Shayxzoda 1944-yilda “Jaloliddin Manguberdi” tarixiy dramasini yozgan. Adib asarida o‘z yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun mo‘g‘ul istilochilariga qarshi kurashgan so‘nggi Xorazm shohining jangovar jasoratini tarixan aniq va haqqoniy tasvirlagan. Biroq sobiq sho‘rolar davrida Jaloliddin Manguberdining sarkardalik faoliyati va uning Vatan ozodligi uchun olib borgan kurashi bir yoqlama yoki umuman fikr bildirilmasdi.

Jaloliddin Manguberdi haqida muarrix va yirik davlat arbobi Alouddin Atomalik Juvayniy tomonidan yozilgan “Tarixi jahonkushoy” (“Jahon fotihi

tarixi") asari muhim manbalardan biri sifatida e'tirof etilgan. Bundan tashqari, Mirxon "Ravzat us-safo", Mirzo Ulugbekning "Tarixi arba' ulus" (To'rt ulus tarixi) asarlarida Jaloliddin Manguberdi haqida ma'lumotlar yozib qoldirilgan. U haqdagi ma'lumotlar, shuningdek, xitoy, mo'g'ul, arman va boshqa tillardagi manbalarda ham uchraydi.

METADALOGIYA

Jaloliddin harbiy muhitda ulg'ayadi va jang san'atini erta o'zlashtiradi. G'azna (hozirgi Afg'oniston) uning qaramog'ida bo'lishiga qaramay, otasi fitnalardan saqlanib, o'g'lini o'zini oldida Gurganjda ushlab turadi. Yosh Jaloliddin dushmanlar bilan tinimsiz janglar bo'lib o'tuvchi chegaraga chiqishga haraqat qiladi. Chingizzxonning rejalashtirgan bosqinidan xabardor bo'lib, Jaloliddin otasidan qo'shinini Sirdaryoga qo'yib, dushmanni o'sha yerda kutib olishini so'raydi, lekin otasi himoya devorlari va qal'asi dushmanni mamlakatga qo'ymasligiga amin bo'ladi va qo'shinni to'plamaslikka qaror qiladi. Mo'g'ullar shaharni shiddat bilan bosib oladi. Avvaliga, 1220 yil Buxoro, keyin Samarqand o'rabi olinadi. Jiddiy xastalangan Muhammad Kaspiyga qochadi. Uchta o'g'lini to'playdi, Jaloliddinning beliga o'z shamshirini osib, uni taxt vorisi etib tayinlaydi va boshqa ukalarini akasiga itoat qilishlarini undaydi. Muhammadning o'limidan so'ng Jaloliddin taxtga o'tiradi, lekin Gurganj aslzodalari yangi hukmdorni bepisand qilib, xalq madadidan chetda qoldirishadi. Jaloliddin uch yuz sodiq turkman jigitlaridan iborat qo'shin to'playdi va Xurosonga yo'l oladi. Niso atrofida ular yetti yuz kishilik mo'g'ul qo'shinini kutib olishadi va ularni osonlikcha yengishadi. Ushbu arzimas g'alaba Xuroson aholisini mo'g'ul istilochilariga qarshi g'ayratlantiradi, natijada, Chingizzxon o'z qo'shinini Xorazm va Xurosonga yo'llaydi va Jaloliddinning kichik ukalarini qo'shini bilan yuzlanib, ularni ayovsiz tor-mor etadi. Jaloliddin vasiyat qilib qoldirilgan yeri tomon yo'l olarkan, Marv noibi Xon Malik va uning qirq ming kishilik lashkari, turkman xoni Sayf id-din va uning qirq ming kishilik lashkari bilan ittifoqdosh tutinadi. Qandahor yaqinida birlashgan lashkarlar qo'shini mo'g'ullarni yo'q qiladi va Jaloliddin G'aznagacha yetib boradi. Murg'ab yuqorisida unga Marvning sobiq noibi Xon Malik va turkman xoni Sayf id-din qo'shiladi. G'aznaga keliboq, Jaloliddin tez orada, o'n ming kishilik qo'shin to'plab, Qandahorni qamal qilgan mo'g'ullarga qarshi yurib, uni tor-mor etadi.

Bo'lingan xorazmlik lashkarlarning harbiy qo'mondonlari o'z hukmdorining muvaffaqiyati haqida eshitib, G'aznaga to'plana boshlaydi va tez orada, Jaloliddin boshchiligida 70 mingga yaqin askar yig'iladi. U bilan birga og'asi Amin al Mulk, sarkarda Timur Malik, qarluqlar xoni Azam Malik va afg'onlar muallimi Muzaffar Maliklar ham keladi. Chingizzxon xali xorazmshoh

kuchidan bexabar bo'lib, unga qarshi Shiki Xutuxu boshchiligidagi 30-minglik qo'shinini jo'natadi. Jaloliddinga nafaqat jangchilari, balki aholisi ham odil va haqqoniy hukmdor o'rnida madad ko'rsatgan. Parvonadagi mag'lubiyatdan so'ng mo'g'ullar Afg'oniston hududini tark etadi. Ularga javoban, Chingizzon xorazmshohlarga qarshi yangi jangda ishtirok etishga qaror qiladi. Ammo, Jaloliddin endigina Chingizzon bilan hal qiluvchi jangga tayyorgarlik ko'rayotgan vaqt uni qo'llab-quvvatlovchi sarkardalar orasida nizo kelib chiqib, qipchoq, qarluq va afg'onlar Jaloliddinni tark etishadi.

NATIJALAR

O'zbekiston hukumati 1998-yilda Jaloliddin Manguberdining mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashda ko'rsatgan mislsiz jasorati, Vatanga va o'z xalqiga sadoqat va cheksiz muhabbatini qadrlash va uning porloq ruhini abadiylashtirish maqsadida "Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligini nishonlash haqida" qaror qabul qildi. Qarorga ko'ra, uning yurti Xorazmda Jaloliddin Manguberdiga haykal o'rnatildi, yirik ko'cha, maydon, jamoa korxonalariga va boshqalarga uning nomi qo'yildi. Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi mustaqil O'zbekistonda 1999-yili keng nishonlandi. Jaloliddin Manguberdi haqida videofilm, doston, pyesalar yaratildi, 2000- yil 30-avgustda "Jaloliddin Manguberdi" ordeni ta'sis etildi. 1999-yilda Jaloliddin tavalludining 800 yilligiga bag'ishlangan 25 so'mlik esdalik tangalari muomalaga chiqarildi.

2000-yil 30-avgustda "Jaloliddin Manguberdi ordeni" ta'sis etildi. Nizomga ko'ra, orden bilan mamlakatimiz mustaqilligi, sarhadlari daxlsizligini himoya qilishda harbiy iste'dod, mardlik va qahramonlik namunasi ko'rsatgan, davlatimiz mustaqilligini mustahkamlashga ulkan hissa qo'shgan harbiy xizmatchilar taqdirlanadi. davlatning mudofaa qobiliyati. 2003-yil 22 avgustda Xorazm viloyati ushbu orden bilan taqdirlandi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki Jaloliddin Manguberdining hayot yo'lini tahlil qiladigan, o'sha tarixiy voqealarga bugungi kun ko'zi bilan qarab baho beradigan bo'lsak, ular bizni mana shunday tabiiy va ibratli saboq-xulosalar chiqarishga undaydi. Birinchi xulosa shuki, hayot bor ekan, davlat, el-yurt bor ekan, shu erkin, osuda hayotni ko'rolmaydigan, hasad va fitna bilan yashaydigan, zo'ravonlik bilan o'z hukmronligini o'rnatishga, xalq tinchini buzishga urinadigan yovuz kuchlar hamisha bo'ladi. Bu – hayot. Bu – hayotning achchiq haqiqati. Uni hech kim inkor etolmaydi. Buni nafaqat o'z tariximiz va hayotimizda, balki boshqa xalqlar tarixi va hayoti misolida ham ko'rish mumkin. Ikkinci xulosa shuki, hayot bor ekan, davlat, el-yurt bor ekan, o'zing tug'ilib o'sgan, ota-bobolaring xoki yotgan, ertaga farzandlaring

kamol topadigan tuproqning har bir qarichini muqaddas bilib, uni himoyalash, zarur bo'lsa, bu yo'lida jon fido etishga tayyor turish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Shaxobiddin Muhammad al-Nasaviy, Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti, T., 1999;
2. Jaloliddin Manguberdi (o'zbek, ingliz, rus tilida), T., 1999;
3. Jaloliddin Manguberdi, Vatan, yurt himoyachisi, T., 1999;
4. Buniyotov 3., Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097—1231), T., 1998;
5. Toshev N., Jaloliddin Manguberdi, T., 1999;
6. Bo'riyev O., Toshev N., Jaloliddin Manguberdi, T., 1999;
7. Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi, T., 1999;
8. Mirxondning „Ravzat us-safo“ asarida Jaloliddin Manguberdi zikri, T., 1999;
9. Tonariy O., Jaloliddin Xorazmshoh va uning davri, T., 1999.
10. Akbar Zamonov. O'rta asr tarixiy shaxslari hayotining ayrim noma'lum sahifalari. T.: Bayoz, 2019.
11. Хайдаров С. (2021). Узбекистон тарихини уқитишда миллий миниатюрадан фойдаланиш (Бобурнома мисолида). Academic Research in Educational Sciences. 2 (7). 760-764.
12. Sulaymonov Askarali. Khaydarov Sulaymon Amirkulovich (2021). Increasing the effectiveness of teaching history through miniature art works. Turkish Journal of Computer and Mathematics Education. 1 (12). 2043- 2049.
13. <https://arboblar.uz/uz/people/dzhalaliddin-manguberdy>
14. <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/106>